XALQ DEPUTATLARI SAYXUNOBOD TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 8-oktabr VI-84-162-9-126-K/24 Sayxunobod tumani

Sayxunobod tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash bo‘yicha amalga oshirilgan ishlarining yakuniy natijalarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-son bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va tuman(shahar)lar ma’muriy-hududiy chegaralarini tasdiqlash ishlarini amalga oshirish bo‘yicha” 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan «Yo‘l xaritasi» hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonunining 10-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan vedeoselektor yig‘ilishining 41-sonli bayoni 20-bandi ijrosi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2023-yil 15-dekabrda 03/4.3-253-son bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi” rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kadastr agentligining 2024-yil 11-martdagi Sirdaryo viloyati hokimligiga yuborilgan 04/08-2328-sonli xat orqali yuborilgan ma’muriy-hududiy tuzilishi masalalariga doir hujjatlar inobatga olinsin.

3. Sayxunobod tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasining 2024-yil 27-avgustdagi 105-sonli yig‘ilish bayoni ma’qullansin.

4. Sayxunobod tumani ma’muriy-hududiy chegarasini belgilash masalalarini ko‘rib chiqish bo‘yicha tuman komissiyasi tomonidan o‘rganib chiqilgan materiallarga asosan Sayxunobod tumani bilan chegaradosh bo‘lgan Sirdaryo, Mirzaobod va Guliston tumanlari o‘rtasidagi chegara chizig‘ini belgilash bo‘yicha chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga hamda tayyorlangan kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman ma’muriy-hududiy chegarasi aks ettirilgan xaritadagi chegara chizig‘i hududida joylashgan yerdan foydalanuvchilarning egaligidagi, foydalanishdagi yer uchastkalaridagi topografik elementlarni (kanal, kollektor, zovur, ariq va yo‘l va boshqa tabiiy va sun’iy obyektlar) saqlab qolinishi bo‘yicha Kadastr agentligining tuman bo‘limi boshlig‘i M.Abdualimovga nazorat olib borilishi belgilansin.

6. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Esirgapov) hamda “Yangi hayot ijtimoiy-siyosiy huquqiy” gazetasi tahririyati(E.Saidov)ga:

- ushbu qaror yuzasidan aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish maqsadida tumanda amalga oshirilayotgan ishlarni yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari G‘.Xoliqberdiyev, tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalarni rivojlantirish, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘rinbosari hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal xo‘jaligi masalalari va aholiga xizmat ko'rsatish bo‘yicha doimiy komissiya raisi X.Raxmonov zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi JALOLOV TURG‘UN ISROILOVICH

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 8-oktabrdagi
VI-84-162-9-126-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumani maʼmuriy-hududiy chegarasini belgilash boʻyicha chegara chizigʻining
T A V S I F I

Toshkent viloyati, Sirdaryo va Sayxunobod tumanining chegara chiziqlari kesishgan joy, Sirdaryo daryosining oʻzanida joylashgan joy, boshlangich 1-nuqtaga tutashadi. *(WGS-84 koordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatalari 40°43ʻ44,670", sharqiy uzoqlik koordinatalari 68°54ʻ22,763").*

A dan B gacha Toshkent viloyati yerlari bilan 1 - 6 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2052 metr masofani oʻtib, keyin umumiy sharqiy yoʻnalishda 2774 metr masofani oʻtib, soʻngra janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2748 metr masofani oʻtib, avtomobil koʻprigi boʻyida joylashgan 2-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°41ʻ20,677", sharqiy uzunlik 68°57ʻ36,141").*

2 - nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali avtomobil koʻprigini kesib oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzaniga oʻtadi va daryo oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 786 metr masofani oʻtib, umumiy keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1606 metr masofani oʻtib, soʻng janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1059 masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°39ʻ57,505", sharqiy uzunlik 68°57ʻ43,512").*

3 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy sharqiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4154 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2920 metr masofani oʻtib, soʻng umumiy sharqiy yoʻnalishda 7005 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38ʻ10,073", sharqiy uzunlik 69°03ʻ42,997").*

4 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining oʻzani boʻylab suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1570 metr masofani oʻtib, keyin umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda 5266 metr masofani oʻtib, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2731 metr masofani oʻtib, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34ʻ48,108", sharqiy uzunlik 69°03ʻ35,124").*

5 - nuqtadan chegara chizigʻi umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda Sirdaryo daryosining suv oqimiga qarshi barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2623 metr

masofani oʻtib, Toshkent viloyati hamda Guliston, Sayxunobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, Sirdaryo daryosi oʻzanida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35ʻ41,457", sharqiy uzunlik 69°02ʻ35,440").*

B dan D gacha Guliston tumani yerlari bilan 6 - 25 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

6 – nuqtadan chegara chizigʻi Sirdaryo daryosi oʻzanidan zovurga oʻtadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 540 metr, shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 699 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 7-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36ʻ16,138", sharqiy uzoqlik 69°02ʻ36,601").*

7 – nuqtadan chegara chizigʻi zovur boʻyidan Uyliko'l koʻliga oʻtadi, keyin koʻlning qirgʻogʻi boʻylab gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1641 metr masofada zovurga oʻtadi, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 659 metr masofani oʻtib zovur boʻyida joylashgan 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35ʻ52,272", sharqiy uzoqlik 69°01ʻ09,565").*

8 – nuqtadan chegara chizigʻi zovur boʻyidan qishloq ichki yoʻliga oʻtadi, keyin qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 142 metr, soʻng gaʻrbiy yoʻnalishda 839 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 426 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°35ʻ39,911", sharqiy uzoqlik 69°00ʻ19,264").*

9 – nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 86 metr masofada zovurga oʻtadi, soʻng zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan 493 metr masofani oʻtib, soʻngra zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan 543 metr masofani oʻtib, R-26 avtomobil yoʻli boʻyda joylashgan 10-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°36ʻ02,319", sharqiy uzoqlik 68°59ʻ56,776").*

10 – nuqtadan chegara chizigʻi R-26 avtomobil yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 202 metr masofani oʻtib, beton ariqqa o tadi, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 988 metr masofada kanalni, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35ʻ57,351", sharqiy uzoqlik 68°59ʻ12,619").*

11 – nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan 35 metr, keyin yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 1834 metr masofani oʻtib, Bosh Qayirli zovuri boʻyida joylashgan 12-nuqtga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35ʻ56,151", sharqiy uzoqlik 68°57ʻ54,829").*

12 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy yoʻnalishda Bosh Qayirli zovurining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2435 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 13-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34ʻ42,969", sharqiy uzoqlik 68°57ʻ58,068").*

13 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan zovurga oʻtadi, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 508 metr masofani oʻtib, keyin janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab 276 metr masofada ariqqa oʻtadi, soʻng ariqning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 176 metr masofada dala tuproq yoʻliga

oʻtadi, soʻngra umumiy gʻarbiy yoʻnalishda dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan 287 metr masofada beton ariqqa oʻtadi, soʻng beton ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 550 metr masofani oʻtib, beton ariq boʻyida joylashgan14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34ʻ32,054", sharqiy uzoqlik 68°57ʻ10,712").*

14 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, zovurga tutashadi va barcha burilishlarni hisobga olgan holda janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 341 metr, janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 479 metr , shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 636 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34ʻ26,759", sharqiy uzunlik 68°56ʻ45,913").*

15 - nuqtadan chegara chizigʻi zovur boʻyidan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 26 metr masofada qishloq ichki yoʻliga oʻtadi, keyin qishloq ichki yoʻlining sharq tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 230 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34ʻ21,672", sharqiy uzunlik 68°56ʻ39,595").*

16 - nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlidan tomorqa chegarasiga oʻtadi, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 127 metr, gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 192 metr masofada zovurni, dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, Doʻstlik kanali boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34ʻ15,184", sharqiy uzunlik 68°56ʻ35,118").*

17 - nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-sharqiy yoʻnalishda Doʻstlik kanalining suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 1752 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 18-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33ʻ30,709", sharqiy uzunlik 68°57ʻ21,390").*

18 - nuqtadan chegara chizigʻi Doʻstlik kanalini keib oʻtib Shoʻroʻzak zovuriga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 463 metr masofani oʻtib, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2223 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°33ʻ50,760", sharqiy uzunlik 68°55ʻ31,945").*

19 – nuqtadan chegara chizigʻi Shoʻroʻzak zovurining suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2040 metr , sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2661 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°34ʻ59,268", sharqiy uzunlik 68°52ʻ35,732").*

20 – nuqtadan chegara chizigʻi Shoʻroʻzak zovuridan quriq chiziq orqali zovurga oʻtadi, keyin zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 4333 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 21-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33ʻ27,808", sharqiy uzunlik 68°50ʻ18,581").*

21 – nuqtadan chegara chizigʻi zovur boʻyidan dala tuproq yoʻliga tutshadi va dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4550 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35ʻ10,947", sharqiy uzunlik 68°48ʻ02,034").*

22 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1226 metr masofani oʻtib, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2691 metr masofani oʻtib, zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1588 metr

masofani oʻtib, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda 1209 metr masofani oʻtib, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 959 metr masofani oʻtib, A-373 avtomobil yoʻli koʻprigi boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37ʻ37,766", sharqiy uzunlik 68°44ʻ35,843").*

23 – nuqtadan chegara chizigʻi A-373 avtomobil yoʻli koʻprigining janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 936 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy yoʻnalishda 872 metr masofani oʻtib, zovurga tutashadi va janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 185 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37ʻ01,959", sharqiy uzunlik 68°44ʻ04,776").*

24 – nuqtadan chegara chizigʻi gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 282 metr masofani oʻtib, keyin zovurni kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 661 metr masofani oʻtib, soʻng yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy yoʻnalishda 312 metr masofani oʻtib, Mirzaobod, Sayhunobod hamda Guliston tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, qishloq ichki yoʻli boʻyida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37ʻ19,319", sharqiy uzunlik 68°43ʻ36,238").*

D dan E gacha Mirzaobod tumani yerlari bilan 25 - 26 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

25 – nuqtadan chegara chizigʻi qishloq ichki yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 43 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°37ʻ20,665", sharqiy uzunlik 68°43ʻ35,825").*

E dan A gacha Sirdaryo tumani yerlari bilan 26 - 1 - nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

26 – nuqtadan chegara chizigʻ orqali gʻarbiy yoʻnalishda 28 metr masofada qishloq ichki yoʻlidan temir yoʻliga oʻtadi, keyin temir yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 443 metr masofada A-373 avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, koʻprikning shimol tomoni bilan gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 38 metr masofani oʻtib, temir yoʻlga oʻtadi vat emir yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 6991 metr masofada avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°41ʻ14,371", sharqiy uzunlik 68°42ʻ22,666").*

27 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil koʻprigining shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 271 metr masofani oʻtib, Shoʻroʻzak zovuriga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda 1436 metr masofani oʻtib, avtomobil yoʻli koʻprigi boʻyida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42ʻ03,606", sharqiy uzunlik 68°42ʻ25,451").*

28 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, Shoʻroʻzak zovuriga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan

holda 1990 metr masofani oʻtib, avtomobil koʻprigi boʻyida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°42ʻ55,434", sharqiy uzunlik 68°41ʻ57,484").*

29 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, Shoʻroʻzak zovuriga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2667 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ19,286", sharqiy uzunlik 68°41ʻ31,151").*

30 – nuqtadan chegara chizigʻi Shoʻroʻzak zovurini kesib oʻtib, Sharqiy tashlama zovuriga tutashadi va umumiy sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 464 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 579 metr, soʻng janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 638 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda, 554 metr masofada Doʻstlik kanalini kesib oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ03,454", sharqiy uzunlik 68°42ʻ33,235").*

31 – nuqtadan chegara chizigʻi kanalning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 854 metr masofani oʻtib, kanal boʻyida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ30,212", sharqiy uzunlik 68°42ʻ24,068").*

32 – nuqtadan chegara chizigʻi kanal boʻyidan zovurga tutashadi va zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 331 metr, soʻngra sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 254 metr, soʻng sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 948 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ41,874", sharqiy uzunlik 68°43ʻ20,089").*

33 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2935 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yo nalishda 422 metr, shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 503 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46ʻ29,649", sharqiy uzunlik 68°43ʻ06,034").*

34 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurni kesib oʻtib, sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 816 metr, keyin umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2152 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45ʻ44,439", sharqiy uzunlik 68°44ʻ30,799").*

35 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurdan zovurga oʻtib , zovurning suv oqimi boʻylab chap tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 644 metr, keyin umumiy shimoliy yoʻnalishda 317 metr masofani oʻtib, soʻngra zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan 262 metr masofada zovurni kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46ʻ08,453", sharqiy uzunlik 68°45ʻ05,235").*

36 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 385 metr masofada dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 800 metr, soʻng umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1187 metr masofada zovurni kesib oʻtib, soʻngra zovurning suv

oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan sharqiy yoʻnalishda 214 metr, keyin shimoliy-shuimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1342 metr masofada Axmankoʻl boʻyiga oʻtadi va koʻlning chap tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 91 metr masofani oʻtib, koʻl boʻyida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47ʻ51,757", sharqiy uzunlik 68°45ʻ13,663")*.

37 – nuqtadan chegara chizigʻi Axmankoʻl koʻli boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 287 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 335 metr masofada koʻlni kesib oʻtib, Bosh Qayirli zovuriga tutashadi, soʻng umumiy sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2793 metr masofada avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47ʻ38,053", sharqiy uzunlik 68°47ʻ30,174")*.

38 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻli koʻprigidan dala tuproq yoʻliga tutashadi va dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 480 metr masofada Bosh Qayirli zovuriga oʻtadi, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1778 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°47ʻ05,174", sharqiy uzunlik 68°48ʻ38,021")*.

39 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy yoʻnalishda Bosh Qayirli zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2109 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2371 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45ʻ38,494", sharqiy uzunlik 68°50ʻ05,719")*.

40 – nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda Bosh Qayirli zovurining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1338 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 163 metr masofada avtomobil yoʻli koʻprigini kesib oʻtib, koʻprik boʻyida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45ʻ00,949", sharqiy uzunlik 68°50ʻ30,527")*.

41 – nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻli koʻprigi boʻyidan yoʻlga oʻtadi, keyin avtomobil yoʻlining sharq tomoni bilan umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2149 metr, shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1513 metr masofani oʻtib, yoʻl burilishida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°46ʻ33,693", sharqiy uzunlik 68°52ʻ00,039")*.

42 – nuqtadan chegara chizigʻi R-26 yoʻliga oʻtib, keyin yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 509 metr, sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 2081 metr masofani oʻtib, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1592 metr masofani oʻtib, R-26 avtomobil yoʻli boʻyida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ52,451", sharqiy uzunlik 68°53ʻ35,750")*.

43 – nuqtadan chegara chizigʻi R-26 avtomobil yoʻlidan dala tuproq yoʻliga tutashadi, keyin yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1729 metr masofada ariqni kesib oʻtadi, keyin janubiy yoʻnalishda 42 metr masofada Qolgansir koʻliga tutashadi va koʻlning oʻng tomoni bilan umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1366 metr, umumiy janubiy yoʻnalishda 498 metr maofada Bosh Qayirli zovurini kesib oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°44ʻ34,080", sharqiy uzunlik 68°51ʻ40,655")*.

44 – nuqtadan chegara chizigʻi umumiy janubiy-sharqiy yoʻnalishda Bosh Qayirli zovurining suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1329 metr, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 482 metr, soʻng sharqiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1298 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43ʻ30,484", sharqiy uzunlik 68°53ʻ11,934").*

45 – nuqtadan chegara chizigʻi Bosh Qayirli zovuridan Shoʻr koʻliga oʻtadi va koʻlning qirgʻogʻi boʻylab umumiy janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 517 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43ʻ20,098", sharqiy uzunlik 68°52ʻ55,959").*


46 – nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan umumiy janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 329 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 596 metr, soʻng umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 112 metr masofani oʻtib, zovur boʻyida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43ʻ23,602", sharqiy uzunlik 68°53ʻ25,061").*

47 – nuqtadan chegara chizigʻi zovurning suv oqimi boʻylab oʻng tomoni bilan umumiy sharqiy yoʻnalishda 1085 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 269 metr, soʻng umumiy shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 440 metr, soʻngra sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 168 metr masofada Sirdaryo daryosiga oʻtadi, Toshkent viloyati hamda Sirdaryo, Sayxunobod tumanlari chegara chiziqlari kesishgan joy, daryo oʻzanida joylashgan 1-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°43ʻ44,670", sharqiy uzunlik 68°54ʻ22,763").*

Xalq deputatlari Sayxunobod tumani
Kengashining
2024-yil 8-oktabrdagi
VI-84-162-9-126-K/24 -son qaroriga
2-ilova


Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanining ma'muriy-hududiy chegara chizig'ining kartografik

CHIZMASI



Sirdaryo viloyati Sayxunobod tumanining
ma'muriy-hududiy chegaralarini belgilash ishlari

TARHI



Chegaradosh yerlar tashkiloti vakili:

1-dan 9-gacha Boshkent tilxonasi yerlari

9-dan 15-gacha Galiston tumani yerlari

2-dan 8-gacha Mirzaobod tumani yerlari

1-dan 9-gacha Sirdaryo tumani yerlari

Shartli belgilar

- Chegaraning harfish nuqtalari
- Viloyat chegarasi
- Tumanlar chegarasi
- Tabiiy, sun'iy kanal va anglamning suv oqimi yo'nalishi
- Zovurlarning suv oqimi yo'nalishi